



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar-fevral holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **553 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning ulushi 1.2 f.p. oshgan
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **255 taga oshgan.**

2018 yilning yanvar-fevral oylarida viloyatimizda 871 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 19 taga ko'pdir.


Shuningdek faoliyati tugatilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 11.2% ga kamaygan hamda ularning soni 159tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 553 taga (2,1 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 26,8 mingtani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Andijon shahrida (33,7 %), Asaka (9,4%), Shaxrixon (6,7 %) va Andijon (6,6 %) tumanlarida kuzatilmoqda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda



**Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 mart holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	ming birlik	jamiga nisbatan %	ming birlik	jamiga nisbatan %
Andijon viloyati	26,8	100,0	25,2	100,0
Oltinko'l	1,5	5,6	1,3	5,1
Andijon	1,9	6,7	1,7	6,6
Baliqchi	1,5	5,6	1,4	5,7
Boz	0,6	2,2	0,6	2,5
Buloqboshi	0,6	2,2	0,6	2,5
Jalaquduq	1,0	3,8	1,0	4,0
Izboskan	1,2	4,5	1,1	4,4
Ulug'nor	0,5	1,9	0,5	2,0
Qo'rg'ntepa	1,5	5,6	1,2	4,8
Asaka	2,4	9,0	2,4	9,3
Marxamat	1,2	4,5	1,1	4,5
Shaxrixon	1,9	7,1	1,7	6,7
Paxtaobod	0,9	3,4	0,8	3,3
Xo'jaobod	0,9	3,4	0,9	3,5
Andijon sh.	8,8	33,0	8,5	33,7
Xonobod sh.	0,4	1,5	0,4	1,5

**Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat
ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da**




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 94,1 %ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulishi 5,9 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,6 f.p. kamaygan


■ faoliyat ko'rsatayotganlar ■ faoliyatsizlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 25,5 % savdoda, 19,6 % sanoatda, 8,7 % qurilishda, 7,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 4,7 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,7 % tashish va saqlash, 2,0 % axborot va aloqa, 2,0 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 26,7 % boshqa faoli-

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda




2018 yil yanvar-fevral holatiga 871 korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 41,4 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Andijon shahrida (239 ta), Asaka (95 ta), Oltinko'l (58 ta) va Baliqchi tumanlarida (49 ta) tashkil etilgan. Eng kam Ulug'nor (18 ta), Buloqboshi (21 ta) hamda Bo'z (22 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (133 ta), sanoatda (175 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (47 ta) va qurilishda (99 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (21 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (40 ta) va tashish va saqlashda (60 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-0,9 f.p), savdoda (-0,8 f.p), axborot va aloqada (-0,2 f.p.dan) kamayganligi, buning natijasida sanoatda (+0,7 f.p.), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,4 f.p.), qurulishda va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (+0,2 f.p.dan), tashish va saqlashda (+0,1 f.p.) hamda boshqa faoliyat turlarida (+0,3 f.p dan) ulushining o'sishiga olib keldi.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.03.2018 y.	01.03.2017 y.	farqi (+/-)
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2,0	2,9	-0,9
Savdo	25,5	27,6	-2,1
Axborot va aloqa	2,0	2,1	-,1
Sanoat	19,6	18,8	0,8
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	7,0	7,7	-0,7
Qurilish	8,7	8,6	0,1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4,7	4,8	-0,1
Tashish va saqlash	3,7	3,3	0,4
Boshqa turlari	26,8	24,2	2,6

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 mart holatiga 20,7 mingdan oshiq tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 6,1 mingta, oilaviy korxonalar – 0,5 mingta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 13,6 mingta, aktsiyadorlik jamiyatlari – 0,04 mingtani va boshqalar 0,1 mingtani tashkil etadi.


Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, ming birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 mart holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 175 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 155 taga yoki 11,4 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 96 tasi qo'shma korxonalar, 79 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Andijon shahar 74 ta (42,3 %i), Andijon tumani 17 ta (9,7 %) va Shahrixon tumanlari 14 ta (8,0 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Bo'z tumani 1 ta (0,5 %), Ulug'nor tumani 2 ta (1,1 %), Xonobod shahri 3 ta (1,7 %) va Paxtaobod tumani 4 ta (2,3 %) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 mart holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 135 ta (77,1 %), savdoda 12 ta (6,9 %), boshqa turlarida esa 6 ta (3,4 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 1 ta (0,5 %), axborot va aloqada 0 ta (0,0 %), tashish va saqlashda 3 ta (1,7 %) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 6 ta (3,4 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 5 ta (2,9 %) va qurilishda 7 ta (4, %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-fevral oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarning soni 1 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 taga, yoki 3 baravarga kamaygan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, sanoatda 1xorijiy kapital ishtirokidagi korxona yangi tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 mart holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 20,7 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 mart holatiga qaraganda 8,5 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 7466 tasi (36,1 %) Andijon shahriga, 1991 tasi (9,6 %) Asaka, 1403 tasi (6,8 %) Andijon hamda 1346 tasi (6,5 foizi) Shahrixon tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, ming birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 20.7 mingta kichik korxona va mikrofirmalarning 6416 tasi (31,0 %) – savdoda, 4897 tasi (23,7 %) - sanoatda, 2180 tasi (10,5 %) - qurilishda, 1724 tasi (8,3 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1174 tasi (5,7 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 905 tasi (4,4 %) - tashish va saqlashda, 508 tasi (2,5 %) - axborot va aloqa sohasida, 439 tasi (2,1 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 2434 tasi (11,8 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-fevral holatiga 643 kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 3,0 foizga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Andijon shahrida (197 ta), Andijon (42 ta), Xo'jaobod (36 ta) va Shahrixon tumanlarida (34 ta) tashkil etilgan. Eng kam Ulug'nor (9 ta), Buloqboshi (17 ta) hamda Jalolquduq (20 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (175 ta), savdoda (132 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (47 ta) va qurilishda (99 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (21 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (40 ta) hamda tashish va saqlashda (60 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 mart holatiga 519 tani tashkil etib, ulardan 489 tasi yoki 94,2 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 13,1 %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 43,8 % yoki 214 tasi sanoat, 11,4 % yoki 56 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 8,2 % yoki 40 tasi savdo, 25,8 % yoki 126 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,4 % yoki 7 tasi qurilish, 0,6 % yoki 3 tasi axborot va aloqa, 0,2 % yoki 1 tasi tashish va saqlash, 1,0 % yoki 5 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 7,6 % yoki 37 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Andijon viloyat statistika boshqarmasi
 Statistika registrini yuritish bo'limi
 Nashr uchun mas'ul: **U.Nurdinov**
 (0371) 230-82-71

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
 registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
 tayyorlangan